

## INNOVATSION TAFAKKUR RIVOJLANISHDA TO‘SQINLIK QILUVCHI GENDER STEREOTIPLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI

To‘yeva Muhayyo Shuxrat qizi  
TDPU “Ijtimoiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi  
tuyevamuhayyo@gmail.com  
[m\\_toyeva@tdpu.uz](mailto:m_toyeva@tdpu.uz)  
+998931226699  
ORCID-0000-0002-5073-1093

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada xotin-qizlarning jamiyatdagi faoliyatini kuchaytirishda, ularning ilmiy va ma’rifiy salohiyatini shakllantirishda ijtimoiy falsafaning o‘rni, gendir stereotiplar va ularni bartaraf etish mehanizmlari haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** Ijtimoiy falsafa, xotin-qizlar, ilm-fan, texnologiya, innovatsiya, ijtimoiy faollik, gendir stereotiplar.

### I.KIRISH

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyotida, ayollar faolligi va ularning salohiyatini yuksaltirish barasida har tomonlama xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirish hamda ularni qo‘llab-quvvatlash borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xotin-qizlar jamiyatning asosiy tayanchi hamda uning taraqqiyotida asosiy kuchlardan biri bo‘lib, har qanday jamiyatning ma’naviy, madaniy va ijtimoiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Jamiyat taraqqiyotida xotin-qizlarning salohiyatini oshirishda adabiyot – ma’rifat manbai. Inson tafakkurini boyitish, ruhiyatini yuksaltirish va ma’naviy quvvat sifatida muhim vosita hisoblanadi, shuningdek, ularning ijtimoiy faolligi va liderlik qobiliyatlarini rivojlantirishda ham adabiyotning ta’siri katta. Tarix davomida ijtimoiy falsafa nafaqat ma’lumot manbai, balki shaxsiy va ijtimoiy ta’limning eng samarali vositalaridan biri sifatida e’tiborga sazovor bo‘lib, innovatsion tafakkur orqali xotin-qizlar nafaqat bilim oladi, balki o‘z huquq va imkoniyatlarini anglab, ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga ilhomlanadilar.

Dunyoda xotin-qizlarning ijtimoiy faolligini ta’minalash hamda ularning jamiyatdagi ishtirokini kuchaytirish bo‘yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: xotin-qizlar huquqlari va iqtisodiyot; ayollar huquqlari inson huquqlari sifatida; inson huquqlariga gender tamoyili nuqtayi nazaridan nigoh; xotin-qizlarning muhandislik va texnik sohalardagi faoliyatlarini kengaytirish jamiyatdagi gender disbalansining oldini olish omili; xotin-qizlarning boshqaruvdagi roli. O‘zbekiston huquqshunosligida gender huquqi bilan bir qatorda reproduktiv huquqlar tushunchasi ham ancha yangi bo‘lib, ular hali uncha o‘rganilmagan soha hisoblanadi. Bu borada amalga oshirilgan ilmiy-nazariy ishlar, tahliliy fikr-mulohazalar deyarli yo‘q. Ayollarning reproduktiv huquqlari ko‘proq G‘arb sotsiologlari tomonidan o‘rganilgan. Reproduktiv huquqlar – bu inson hayotining hech kim, hatto eng yaqin kishisi tomonidan ham nazorat qilinishi mumkin bo‘lmagan jihatlaridir. Reproduktiv huquqlarga yetarli darajada e’tibor berilmasligi

оqibatida Yevropa mamlakatlarida tug‘ilish kamayib bormoqda bu esa bir millat, jamiyat yo‘qolishiga olib keladigan fojiyaviy holat albatta.

Innovatsion tafakkur jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, u yangi g‘oyalar, texnologiyalar va kreativ yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, gender stereotiplari ayollar va erkaklarning intellektual va ijodiy salohiyatidan to‘laqonli foydalanishga to‘sinqinlik qilishi mumkin. Ushbu maqolada gender stereotiplarning innovatsion tafakkur rivojiga ta’siri tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari taklif etiladi. Gender stereotiplari – bu erkaklar va ayollar haqida jamiyatda shakllangan barqaror tasavvurlar bo‘lib, ular innovatsion tafakkur rivojiga quyidagi jihatlarda salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

Ta’lim va kasbiy tanlov – Ayollar STEM (science, technology, engineering, mathematics) yo‘nalishlariga kamroq jalg qilinadi, bu esa innovatsion tafakkurga ta’sir qiladi.

Ijodiy tafakkurga to‘sinqinlik – “Ayollar texnik tafakkurga ega emas” kabi stereotiplar ularning innovatsion loyihalarda faol ishtirok etishini cheklaydi

Oila va martaba muvozanati – Gender stereotiplari tufayli ayollarga ko‘proq uy vazifalari yuklatilib, ularning ilmiy va ijodiy faoliyatiga vaqt ajratish imkoniyati kamayadi. Gender stereotiplarga qarshi kurashish uchun ommaviy axborot vositalari va madaniyatni o‘zgartirish, ayollarning ilmiy va texnologik yutuqlari haqida ko‘proq ma’lumot berish, ommaviy axborot vositalarida gender tengligini targ‘ib qilish zarur deb hisoblayam. Jamiyatda ayollarga nisabatan “ayolar uyda o‘tirsin”, “qiz bola o‘qib nimayam qiladi”, degan stereotipilar mavjudki biz unga qarshi qancha kurashmaylik qutilolmayapmiz buning ildizi albatta “savodsiz onalarga” borib taqaladi. Zero ayollar o‘qimishli bo‘lsa, ulardan dunyoga keladigan avlodlar ham aqilli, sdunyoqarshi keng, tafakkuri har qanday muammoli vaziyatdan oson yo‘l topa oladigan zukko farzandlar jamiyatni boshqaradi. Innovatsion tafakkur jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib, u yangi g‘oyalar, texnologiyalar va kreativ yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Biroq, gender stereotiplari ayollar va erkaklarning intellektual va ijodiy salohiyatidan to‘laqonli foydalanishga to‘sinqinlik qilishi mumkin. Ushbu maqolada gender stereotiplarning innovatsion tafakkur rivojiga ta’siri tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish mexanizmlari taklif etiladi. Hamma narsa oiladan boshlanadi. Agar farzandlarimizni kichikligidan gender tenglik ruhida tarbiyalasak, kelajakda jamiyat ham o‘zgaradi.

## II. METODLAR

Ze’ro, muhtaram Prezidentimiz tabiri bilan aytganda “Qizlarimizning zamonaviy bilimlar va kasb-hunar egasi bo‘lib, jamiyatda hamda o‘z oilasida munosib o‘rin topishi uchun boshlagan ishlarimizni bundan keyin ham izchil davom ettiramiz. Bu borada, avvalo, 2022-2024 yillarga mo‘jallangan Xotin-qizlar ta’limini qo‘llab quvvatlash milliy dasturni qabul qilamiz. Ushbu ishlarimizning mantiqiy davomi sifatisda ilmiy izlanish va kashfiyotlari bilan yurtimiz ravnaqiga katta hissa qo‘sib kelayotgan olima ayollarni har tomonlama qo‘sllab-quvvatlash ishlarini yangi bosqichga

ко‘тaramiz’<sup>9</sup>. Innovatsion tafakkur- muammolariga kreativ va samarali yechim topish qobiliyati bo‘lib, u ijodkorlik, tanqidiy fikrlash va ochiq dunyoqarashni talab etadi. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi esa davlat muassasalari va turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik subyektlarida mehnat qilish orqali insonning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy mahsulotlarni yaratishdan iborat. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi tadbirkorlik tuzilmalari, jamoat tashkilotlari, korxona va muassasalardagi faoliyatlarida, mamlakat iqtisodiy tizimining taraqqiy etishiga qo‘shayotgan hissasida namoyon bo‘ladi.

Gender tengligi kabi masalalar ko‘hna Sharq uchun ijtimoiy-ilohiy me’yor va mezonlarda shakllantirilgan. Dastavval bu bahsga “Yuz tuman noplak erdin yaxshiroq, pok xotinlar oyog‘ining izi”, deya Navoiy bobomiz kirishganini yodga olaylik. Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonida asarning bosh qahramoni Farhod bo‘lsada, asarda Armaniston o‘lkasini siyosiy davlat boshlig‘i Mehinbonuning mohirlik boshqaruvi tufayli xalqning tinch-osuda, farovon turmushining ta’milanishi g‘oyasi olg‘a surilgan. Uning qizi Shirin ham tarbiyali, ma’rifatli ayol ekanligi, ezgulikka daxldorligi tarannum etilgan. Sharq xotin-qizlarining qiyofasi buyuk mutafakkirlarning ijodida eng go‘zal estetik notalarda ta’riflanib, Bibixonim, Xonzodabegim kabi aql-zakovat sohibalarining jasoratlari bilan mustahkamlangan. Mavzuga oid fikr va mulohazalarni mutaxassislarining monografik tadqiqotlarida uchratish mumkin<sup>10</sup>. Shu bilan birga ularda milliy va diniy qadriyatlarga nisbatan o‘zgacha yangi munosabatlarni qadriyatlashuvini ham kuzatish mumkin.

Yangi asr dunyo miqyosida inson huquq va erkinliklari, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy muhofazasi bo‘yicha nufuzli xalqaro tashkilot, uyushma va harakatlar, anjumanlar faollashuvi bilan izohlanadi. Xotin-qizlarning innovatsyon tafakkurini oshirishning tarixiy turmush tarzi, an’anaviylik omiliga ta’siri jumladan, xalqaro darajada faoliyat yurituvchi Malala Fondi, BMT tarkibidagi ayollar huquqlarini himoya qilish bo‘yicha UN Women, Afrika qit’asida ayollar huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topishga ko‘maklashuvchi The Boardroom Africa tashkiloti, azaldan erkaklar, asosan, band bo‘luvchi axborot tizimi va dasturlash texnologiyalari kabi sohalarda ayollar hamda qizlarning ishtirokini kengaytirishga ko‘maklashuvchi Girls Who Code (“Dasturchi qizlar”) tashkiloti shular jumlasidandir.

Ayollarning ijtimoiy faolligi tarixan oila doirasida bandlik, uy-ro‘zg‘or yuritish, tomorqa ho‘jaligida oila byudjetiga daromad olish, er va farzandlarning tibbiy-maishiy turmushini ta’minalash va monitoringi bilan muhim ijtimoiy faoliyatga ega edi. Shu boisdan, ayolning siyosiy faolligi yopi tarzda bo‘lsada oilaviy muhitda ila ishlarini boshqarish bilan belgilangan. Ota yoki erkak oilaviy ishlarning siyosiy hayotini ko‘p vaqt ayolga ishonib topshirgan. Ijtimoiy faollik mehnat, ta’lim va tarbiya, uy-joy va ro‘zg‘orning hisob-kitob va saranjom-sarishta tutish san’atidan o‘z mujassamini topadi. Bu masalada biz tadqiqotchi N. Annaevaning qarashlari bilan fikrimizni

<sup>9</sup> SHavkat Mirziyoyev Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo’lini qatiy davom ettiramiz. 6 .“O‘zbekiston”. Toshkent -2023 398 B

<sup>10</sup> Ниязова Н.М. Исторический генезис и современное развитие гендерного равенства в международных отношениях. – Т.; Шарк, 2018. – 186 с.

dalillaymiz<sup>11</sup>. Xotin-qizlarning iqtisodiy faolligi esa davlat muassasalari va turli mulkchilik shaklidagi xo‘jalik subyektlarida mehnat qilish orqali insonning hayot kechirishi uchun zarur bo‘lgan moddiy mahsulotlarni yaratishdan iborat. Ijtimoiy fanlardagi “Ayollarning ishlab chiqarishda bandligi bilan birga, uyi va bolalari to‘g‘risida qayg‘urishi, bir tomonidan, ularning iqtisodiy noqulaylikka solishi, ikkinchi tomonidan, ularning haq to‘lanmaydigan mehnati hajmini ko‘paytiradi”<sup>12</sup>, degan qarashlarga ham qo‘sila olmaymiz. Chunki barkamol shaxsni tarbiyalash kishilik jamiyatni oldida turgan muhim vazifa bo‘lib, bu faoliyat jarayonida ayollar o‘zlarining ijtimoiy-siyosiy faolliklarini namoyon qilmoqdalar. Gendir stereotiplar bilan bog‘liq noto‘g‘ri qarashlarga qarshi targ‘ibot ishlarini olib borish, ilm-fan, biznes va innovatsiyadagimuvaffaqiyat hikoyalarini ommalashtirish orqali ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Jahonda ayollar jamiyatni boshqarsa yaxshi bo‘ladimi yoki erkaklar?, Xotin-qizlarning huquqlarini oshirib borishning chegarasi, yuqori nuqtasi bormi? Ayol va erkak munosabatida eng oqilona muvozanat qanday ta‘minlanishi mumkin, degan bahsli masalalar bugun butun bashariyatni xavotirga solib, kelgusi avlod taqdirini hal qiladigan dolzarb muammoga aylandi. Chunki, ijtimoiy faollik hamda gender tengik ayolni ijtimoiy guruh va toifalar bilan siyosiy hamkorlik qilish, nizo va mojarolarni hal etishda jiddiy harakat va energiyani talab etadigan ish yuritish shaklidir.

### III.NATIJALAR

O‘zbekistan Respublikasining 2019 yil 2 sentyabrdagi “Xotin-kizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlardan kafolatlari to‘g‘risida” O‘RQ-562-son konuniga asoslangan holda tadqiqotchi A.Turg‘unova “... gender - xotin-qizlar va erkaklar o‘rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida namoyon bo‘ladigan ijtimoiy jihat hisoblanadi” degan me’yorga ko‘ra ... lotincha “genus”, ya’ni “jins” ma’nosini anglatib, jamiyatda har ikki jins vakillari uzlarining shaxsiy fazilatlarini namoyon qilish uchun teng, bir xil sharoit va imkoniyatlarning mavjudligini anglatadi. Biologik jins insonlarni ayol va erkaklarga ajratsa, gender esa - ayol va erkaklarning jamiyatdagi statusini ajratishga karatilgan. Jamiyatda ayol va erkaklarning o‘z o‘rnini topishi va belgilashi uchun davlat ularga bir xil sharoit va imkoniyat yaratib berishi”ni nazarda tutgan. Masalaning bahsli va noziq tomoni erkak va ayolning ijtimoiy fuqarolik maqomi amaldagi qonunlarda to‘la belgilangan va yuridik jihatdan o‘rnatalgan. Gender tengligining mohiyat mazmuni jinsiy tenglik, ya’ni seksual tenglikni ham nazarda tutishi olma tomonidan e’tiborga olinmagani, o‘zbek jamiyatidagi miliy-diniy ayolga munosabatning o‘ziga xos mental jihatini tushunmaslik deb ham hisoblash mumkin<sup>13</sup>. Har bir davlatning ayollarning faollashuvida ularning huquqlariga munosabati, xotin-qizlar manfaatlarining kafolati bilan belgilanishi tufayli o‘ziga xos farq qilishini yodda tutish kerak. Muhtaram

<sup>11</sup> Аннаева Н. Аёллар тадбиркорлиги гензиси ва амалиёти. Фал.фун.докт. дисс. автореф. – Самарканд: СайдУ. 2018. – Б. 8.

<sup>12</sup> Ўтиш даври, ислоҳотлар ва аёлларнинг аҳволи // Ўзбекистон Республикаси аёлларининг аҳволи тўғрисидаги маъруза. –Т.: ТДИУ. 2017, —Б. 22.

<sup>13</sup> Тургунова А. Т. Оиласларда гендер тенгликни таъминлашда кекса авлод ёшлиар учун ибрат кўзгуси сифатида// Замонавий таълим / Современное образование. – 2021. – №2 (99). —Б. 10—14

Prezidentimiz "Har qanday xalqning yetuklik darajasini, avvalo ayollarning ilmiy-madaniy komoloti belgilab berishi, oqila va o'qimishli onalar millatning buyuk kelajagini yaratishlari hammamizga yaxshi ayon. Shu bois donishmandlar "Bitta qiz bolani o'qitsangiz – butun oilani o'qitgan bo'lasiz" deb bejiz takidlamagan<sup>14</sup> dedilar.

Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi G'arb jamiyati ayollarinikidan farqlanishi milliy konfessional jihatlarga egadir. Shu ma'noda kompravistika o'ziga xos jihatlariga ega ekanligini tasdiqlaydi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash orqali gender streotiplardan halos etishimiz mumkin, ijtimoiy muhit va uning tarkibiy qismi bo'lgan oilaviy muhitning alohida o'rni bor. Ijtimoiy muhit ayollarni faol bo'lishga rag'batlantirsa, oilaviy muhitda uning barkamollikka erishuvi uchun zarur shart-sharoitlar yaratiladi, ya'ni ijtimoiy muhitning kichik bir bo'lagi hisoblangan oilaviy muhitning ayollar faolligini oshirishdagi o'rni beqiyosdir.

#### IV. XULOSA

O'zbekistonda xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini oshirish va faollahuvi borasidagi siyosati ijtimoiy barqaror taraqqiyotga ta'siri yuzasidan nazariy tahlillardan quyidagi xulosalarga kelinadi. O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy muhofazasi, ya'ni innovatsion rivojlanishi va faollahuvini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida faol ishtirokini ta'minlash davlat siyosati sifatida hukumat faoliyatini ustuvor faoliyat yo'nalishlarini belgilab berdi. Shu munosabat bilan mamlakat miqyosida demokratik islohotlarning mazmun mohiyati, markaziy va mahalliy hokimiyat tizimining boshqaruv tizimi ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlash uchun jamiyatni, siyosiy-iqtisodiy tizimli isloh qilishga, mukammallashtirish Ozod va farovon jamiyat barpo etish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, barkamol avlod tarbiyasiga yo'naltirildi.

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlarning innovatsion g'oyalarini, ixtirochilik va ratsionalizatorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashning amaliy natijalariga erish uchun olma ayollarni xorijiy nufuzli ilmiy markazlar va universitetlarga qisqa muddatli ilmiy stajirovkalarga yuborilmoqda. Shuningdek, startap loyihalar tanlovlarda hamda xorijiy davlatlarga stajirovkaga yuborilayotgan yosh olimlar orasida ham xotin-qizlarning sonini ko'paytirish bo'yicha choralar ko'rilmoxda. Ya'ni Yangi O'zbekiston sharoitida xotin-qizlarning ta'lim sohasi va ilm-fandagi o'rnini kengaytirish, keljakda ularni ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatga yanada keng jalb qilish, xalqaro miqyosda faolligini rag'batlantirish, muhandislik, axborot kommunikatsion texnologiyalar sohasida ulushini oshirish, olimalar ilmiy-innovatsion faoliyati bilan bog'liq xorij tajribasini o'rganish masalalariga e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekstonda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faollahuvini ijtimoiy ta'sirini tahlil va talqinlari bir qator falsafiy tayanch nuqtalarga ega bo'lishidan ularni quyidagicha ajratib ko'rsatish mumkin:

*Birinchidan*, har bir xalqning ijtimoiy taraqqityotiga ta'sir etuvchi "ijtimoiy elita" qatlami bo'lganidan xotin-qizlar ijtimoiy faollahuvi islom davlatlarida

<sup>14</sup> Shavkat Mirziyayev Yangi O'zbekiston taraqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo'lini qatiy davom ettiramiz 6 "O'zbekiston" 2023 398s b

murakkab siyosiyashgan jarayon hisoblanadi. Chunki, asrlar davomida ijtimoiy tobeklik, iqtisodiy qaramlik, oilaviylik, farzandlilik, jamoaviylik kabi ruhiy holat milliy mentalitetni hosil qilgan. Ayni vaqtida o‘zbek jamiyatining avtoritar ruhiyatini inersiyasi sharoitida ijtimoiy faollik va siyosiy faollik alohida xususiyatlarga ega bo‘lgan;

*Ikkinchidan*, har qanday vaziyatda milliy-diniylik tufayli har bir odamning ijtimoiy faolligi o‘ziga xos namoyon bo‘lishi, ayni vaqtida ayollarning ijtimoiy faolligi o‘zga tabalardan farqlanishi bilan har bir ayolning faollahushi turli-tuman darajalarda namoyon bo‘ladi.

*Uchinchidan*, ijtimoiy faollikni kelib chiqishi va sohalar bo‘yicha klassifikatsiya qilishi mantiqiy-uslubiy jihatdan mavzu muammosiga mos keladi. Ijtimoiy va siyosiy, madaniy- ma’naviy, jismoniy va demografik shakllarga ham guruhlashtirish mumkin. Shuning uchun o‘zbek jamiyati konstuksiyasida ayolning ijtimoiy siyosiy faolligi milliy va diniy axkomlar bilan barcha ijtimoiy muammolarni erkaklar zimmasiga yuklanishi, ayollarning ijtimoiy funksiyasini oila va nikoh farzand tarbiyasida faollik bilan juda yuqori baholangan. Shu boisdan, ayol ona sifatida jannatning kafolati sanalgan.

Xotin-qizlarning gender stereotiplardan xalos bo‘lishi va faolligini oshirish omillari quyidagilardan iborat:

1. Oilani mustahkamlash, oilada ayollarning rolini oshirish yo‘nalishidagi muammolarni hal etishda o‘tmishdagi buyuk ajdodlarimiz tajribasidan unumli foydalanish.
2. Oilada kelinning o‘rni va maqomini belgilab qo‘yish.
3. Turmush qurish paytida Nikoh shartnomasining tuzilishi shartligini qonun asosida qat’iy tartibga solish.
4. Oila qurayotgan shaxs, ayniqsa xotin-qizlarning xususiy mulki masalasini (qalin puli, mahr) hal etish.
5. Xorijiy mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, yoshlarning, ayniqsa qizlarning malakasini baholash mezonini ishlab chiqish va an’ana sifatida joriy etishni targ‘ib etish.
6. “Ayollar” daftarining yuritilishi bilan cheklanmasdan ishsizlarning ish bilan bandligini ta’minalash masalasini haqqoniy echimini topish, ayollarni muhofazalash maqsadida xorijiy mamlakatlarga borib ishlash muammosini alohida “Nizom” asosida tartibga solishni masalaning yechimi bo‘ladi degan umiddaman.

Davlatimiz xotin-qizlarning siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha qator chora-tadbirlarni amalga oshirayotganligi bejiz emas. Davlat mukofotlari - ordenlar va medallarning, sharaflı unvonlarning ta’sis etilishi va ular bilan Vatanimiz taraqqiyoti yo‘lida fidoyilik namunasini ko‘rsatayotgan onalarimiz, opa-singillarimizning mukofotlanishi katta axloqiy va tarbiyaviy mazmunga ega. Xotin-qizlarning siyosiy faolligida fuqarolarimizning jiqligi, ishonchi, tinchlik, barqarorlik va O‘zbekistonidagi millatlararo hamjihatlikning asosiy «siri» yashiringandir.

Ijtimoiy-siyosiy faol ayol obrazini yaratish san’at va adabiyotimizda muhim mavzuga aylandi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davri qiyinchiliklari sharoitida kundalik turmush muammolari o‘zining ko‘zga ko‘rinmas iplari bilan ayollarimizning qo‘l-

оюзларини bog'lab qo'ygan, fikrini, ichki dunyosini band etgan ushbu kunlarda ham ularning fursat topib farzandlariga, turmush o'rtog'iga mehr ulashayotganliklari katta jasoratdir.

## V.FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohatlar yo'lini qatiy davom ettiramiz. 6 ."O'zbekiston".-2023 398 B
2. Ниязова Н.М. Исторический генезис и современное развитие гендерного равенства в международных отношениях. – Т.: Шарқ, 2018.– 186 с.
3. Аннаева Н. Аёллар тадбиркорлиги гензиси ва амалиёти. Фал.фан.докт. дисс. автореф. – Самарканд: СаидУ. 2018. – Б. 8.
4. Ўтиш даври, ислоҳотлар ва аёлларнинг аҳволи // Ўзбекистон Республикаси аёлларининг аҳволи тўғрисидаги маъзуза.–ТДИУ. 2017,—Б. 22.
5. Тургунова А. Т. Оилаларда гендер тенгликни таъминлашда кекса авлод ёшлар учун ибрат кўзгуси сифатида// Замонавий таълим / Современное образование. – 2021. – №2 (99). —Б. 10—14
6. To'yeva M.Sh. O'zbekiston Respublikasining yangilanish jarayonida xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirish va faollashuvi borasidagi siyosati: umumnazariy tahlillar.Ijtimoiy-gumanitar fanlar dolzarbli muammolari №6 (4)- 2024.318B
7. To'yeva M.Sh. Raqobatbardon jamiyatda xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini oshirishning falsafiy-konseptual tahlili.Ta'linda iqtisodiyot, menejment va raqamli innovatsiyalar: zamonaviy tendensiyalari va yondashuvlari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024.03.13.181B.